

**Uralov Eliboy Omonovich PhD, v.b. Professor**

**Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti**

**O'ZBEKISTONDA SANOATNI RIVOJLANISHINING TARIXIY-GEOGRAFIK TAHLILI**

*Уралов Елибой Омонович*

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, независимый исследователь*

**ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА**

**Аннотация:** Ushu maqolada O'zbekiston Respublikasi xududlarida sanoat korxonalarini, sanoat mahsulotlarini dastlabki shakillanishi, rivojlani tarixi ochib berilgan.

**Ключевые слова:** Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent, aroq-vino, tamakichilik, tegirmonchilik, ko'nychilik, ipakchilik, yog', sovun va sham tayyorlash.

**Uralov Eliboy Omonovich Independent researcher Tashkent State Pedagogical University named after Nizami**

**HISTORICAL-GEOGRAPHICAL ANALYSIS OF INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN**

**Abstract:** В данной статье описана история первоначального становления и развития промышленных предприятий и промышленной продукции на территории Республики Узбекистан

**Keywords:** Самарканд, Бухара, Хива, Кокан, Тошкент, водка и вино, табак, мукомольное, кожевенное производство, производство шелка, масла, мыла и свечей.

Tarixan shakllangan respublika aholisining tadbirkorlik faoliyatiga moyilligi kichik va o'rta biznes rivojida ham muhim rol o'ynadi. Chunki O'zbekiston Yevrosiyo qit'asining asosiy savdo yo'llari tutashgan yerda joylashgan bo'lib Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon kabi shaharlar qadimdan, o'zining hunarmandlar, ustalar, va savdogorlar bilan dong taratishgan.

O'zbekiston sanoatini tarixiy rivojlanishini quyidagi davrlarga bo'lishimi mumkin.

1-ikkinchi jahon urishgacha bo'lgan davr sanoati

2- ikkinchi jahon urushidan keyin bo'lgan davr

3-Mustaqillikdan keyingi davr

1-ikkinchi jahon urishgacha bo'lgan davr sanoati. XX asrning 20 yillaridan boshlab O'zbekiston sanoati 1-jahon urushi va fuqarolar urushi natijasida inqirozga uchragan mayda, kichik korxonalarni tiklash asosida rivojlana boshladi. Paxta tozalash zavodlari, pillakashlik, yigiruv-to'quv, tikuvchilik, poyabzal fabrikalari qurila boshladi ya'ni qishloqlarda xom ashyo yaqin joylarda yengil sanoat, 1937-yilda Toshkent to'qimachilik kombinati ishga tushirildi, XX asrning 40—50-yillaridan boshlab ko'mir sanoati, gaz sanoati, neft sanoati jadal rivojlana boshladi. [3]

O'zbekistonda korxonalarni qurish harakatini 1865 yili iqtisodiy rayonning yirik shaharlaridan biri Toshkent bosib olingandan keyin bu yerga kelishgan ruslarning turli qatlamlarning ko'plab vakillari: harbiylar, amaldorlar, savdogarlar, ishbilarmonlar va boshqalar boshlab berishdi.

Ishbilarmonlar, birinchi navbatda, O'zbekistonda tansiq bo'lgan mahsulotlarga e'tiborlarini kuchaytirdilar. Ayniqsa, kundalik ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan gugurt, sovun, sham kabi ro'zg'or buyumlariga talab katta edi. Masalan, o'lkada gugurt ishlab chiqarilmagani uchun u chet ellardan, asosan Rossiyadan keltirilgan.

Yengil sanoat turlaridan biri shoyi to'qishdan boshqa sohalarda ham mahalliy hunarmandchilik bilan sanoat ishlab chiqarishi o'rtasida raqobat kuchaydi. Bu kurash sanoatchilar foydasiga hal bo'la boshladi. Masalan, 1872 yilda Toshkentda ruslar tomonidan Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarishi jihatidan boshqa shaharlarga nisbatan tez rivojlandi. 1875-yili shaharning birgina mahalliy aholi yashaydigan qismida 73 ta bo'yyoqchilik, 102 ta ko'nchilik, 20 ta sham va sovunchilik korxonalari, 46 ta g'isht zavodi va 239 ta tegirmon ishlab turgan. Mahalliy mulkdorlar va hunarmandlarga qarashli bo'lgan zavodlarda (g'isht zavodlaridan tashqari) ishchilarning soni o'rtacha 4-5 kishidan oshmagan. Demak, bu zavodlar shu davrda Toshkent shahrini O'rta Osiyoni boshqarishda markaz sifatida rivojlangan [4].

Paxta zavodlari qurilishiga Samarqand viloyatida ham e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, viloyat hududidan temir yo'l o'tkazilishi sanoat korxonalari qurish imkoniyatini kengaytirdi. 1886 yili knyaz Tinxachev tomonidan Kattaqo'rg'on uyezdining paxta ko'p ekiladigan Mitan qishlog'ida birinchi paxta zavodi qurildi. Demak, Samarqand viloyatida temir yo'l ishga tushirilgandan keyin dastlabki sanoat korxonalari qurila boshladi.

Kattaqo'rg'on shahridan 30 chaqirim masofada joylashgan bu zavodga paxta atrof qishloqlardan ot va ho'kizlar qo'shilgan aravalarda tashilgan. Paxta yetishtirishning ko'payishi tufayli, 1889 yili Kattaqo'rg'on shahrida, vokzal yaqinida injener L.O. Yugovich tomonidan bug' bilan ishlaydigan va 4 ta paxta tozalash zavodi qurildi. Paxtaga bo'lgan talabni qondirish uchun har ikkala zavod ham takomillashtirib borildi.

Buxoro viloyatida ham paxta zavodlarining quvvati oshib borishi natijasida, ko'p miqdorda chigit ham to'plana boshladi. Ilgari qadrsiz bo'lgan, hatto ayrim viloyatlarda o'tin sifatida foydalangan chigitdan 1890-yildan boshlab sanoat usulida yog' olishga kirishildi. O'lkada dastlabki yog' zavodi K.K. Drjevetsikiy tomonidan Yangi Buxoro (Kogon)da qurildi. Biroq bu zavod mablag' yetishmasligi, aholidan chigit yig'ib olish imkoniyati cheklanganligi, ayniqsa, mahalliy aholining mashinada tayyorlangan yog'ni iste'mol qilishni istamasliklari tufayli mahsulotini sota olmaganligi sababli o'z faoliyatini to'xtatgan. Chunki mahalliy aholi, ot juvozlardan chiqarilgan yog'lardan unumli foydalanib kelgan.

Iqtisodiy rayon asosiy e'tibor paxta tozalash sanoatiga qaratilib, yetishtirilgan paxtaning katta qismi zavodlarda, qisman eski usulda mahalliy korxonalarda tozalangan. Paxta tozalash zavodlaridan keyin ko'nchilik, ipakchilik,

yogʻ, sovun va sham tayyorlash, aroq-vino, tamakichilik, tegirmonchilik, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarishga e'tibor kuchaydi.

O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi mahalliy mehnatkashlarning turmush tarziga ham jiddiy o'zgarishlar kiritdi. Rossiyaning markaziy rayonlaridan sifatli sanoat mahsulotlarining keltirishi natijasida bozori kasod bo'lgan hunarmandlar o'z kasblarini o'zgartirishga, dastgohlarni ketmonga almashtirib, mardikorlik qilishga yoki yo'q korxonaga egalarga yollanib ishlashga majbur bo'ldilar. Oqibatda, hunarmanchilik korxonalarining soni kamaydi.

O'zbekiston xalq xo'jaligi tinch qurilish yo'liga o'tib, aholiga keng iste'mol mollari yetkazib berishida respublika sanoat korxonalarining roli katta edi. Urush yillarda mamlakatning g'arbiy rayonlaridan ko'chirib keltirishdan tinch maqsadda ishlab chiqarishga o'tish katta ahamiyatga ega bo'lib, bu korxonalar qaytadan rekonstruksiya qilinib ularning xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishga yo'naltirish lozim edi.

Xalq xo'jaligini tinch qurilish yo'liga o'tish, uning ishlab chiqarish quvvatini oshirish bu yillarda sanoat, korxonalarida ishchi kuchi, elektr energiya, yoqilg'i mahsulotlari kabilarning yetishmasligi uni yanada qiyinlashtiradi.

O'zbekiston sanoatini qayta qurishda va halq xo'jaligini rivojlantirishdagi yana bir xususiyat shundan iborat ediki, mamlakat paxta mustaqilligini ta'minlashdek muhim vazifa ko'ndalang turardi. Bu esa oxir oqibatda respublikaning qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligini keltirib chiqardi.

Sobiq sho'rolar davrida O'zbekiston aholisining eng kerakli halq iste'mol mollari bilan ta'minlash, ularning ishlab chiqarish partiya va hukumat mollari bilan ta'minlash, ularni ishlab chiqarish partiya va hukumat rejalarida asosiy o'rin tutgandi. Biroq bu reja, tadbirlar o'z vaqtida bajarilmadi yoki bajarilishi yarim yo'lda qolib ketadi. Mamuriy buyruqbozlik tizimining kuchayishi, yuqoridan turib rejalashtirish, respublikada, paxta yakka hokimligining amalga oshirishi, sanoat korxonalarini asosan xomashyoni qayta ishlashning dastlabki bosqichlariga moslashishi jamiyatni oldinga qarab rivojlanishga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda chiqimlar foydadan oshib ketib, ularning o'rtasidagi farq sobiq ittifoq byudjetidan qoplanardi. Sanoat ishlab chiqarishda maxsulot sifatiga emas, balki miqdoriga katta e'tibor beriladi. Biroq shunga qaramasdan respublika sanoat yirik sanoat ishlab chiqarish hajmi yildan yilga kamayib bordi.

2- ikkinchi jahon urushidan keyin bo'lgan davr. 1941—1945- yillardagi urush davrida O'zbekistonga Rossiyaning g'arbiy qismlaridan 90 ga yaqin sanoat korxonasi ko'chirib keltirildi, ularning ko'pi mashinasozlik, asbobsozlik korxonalaridir. Urushdan keyingi yillarda ko'pgina korxonalar qurilishi natijasida mashinasozlik tarmoqlari ko'paydi, samolyotsozlik, asbobsozlik, motorsozlik, elektroapparat, elektr dvigateli, ekskavator, kompressor zavodlari qurildi. Toshkent, Olmaliq, Chirchiq, Samarqand, Navoiy, Farg'ona, Yangiyo'l, Namangan, Sho'rsuv va boshqa shaharlar kimyo industriyasi markaziga aylandi. Bekobod, Chirchiq, Toshkent shahrida qora metallurgiya, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq, Uchquduq shaharlari rangli metallurgiya markazlari hisoblanadi [3].

O‘z davrida Toshkent traktor zavodi, yirik sanoat korxonalaridan biri bo‘lgan. “O‘zkishloqxo‘jalikmash,, xolding kompaniyasi tarkibiga kiradi. Universal chopik traktorlari, paxtachilik traktorlari, paxta tashish tirkamalari ishlab chikarilgan. O‘kdori ishlab chikariladigan zavod sifatida 1942-yilda ilk bor tashkil qilingan. 1945-yilda oziq-ovqat mashinasozlik zavodi, Tashprodmashga aylantirilib, oziq-ovqat sanoati uchun uskunalar va xo‘jalik mollari ishlab chiqarilgan. 1950 yildan Paxtachilik mashinasozligi zavodi deb atalib, unda paxtaga dastlabki ishlov berish uchun mashinalar, quritish-tozalash sexlari uchun uskunalar tayyorlangan. 1957- yildan paxta tashiydigan transport vositalari va Gaz 51 avtomashinasi ehtiyot qismlari ishlab chiqaradigan Tashavtomash zavodiga aylantirilgan. 1967 yilda rekonsruktsiya qilingan. 1969-yildan traktor zavodi. 1970 yildan Rossiyadagi Vladimir traktor zavodida ishlab chiqarilgan tayyor agregat va uzellardan paxtachilik uchun moslashtirilgan paxta modifikatsiyasidagi T28X4 traktorlari yig‘ilgan. 1972 yildan zavodning o‘zida tayyorlangan uzellardan traktorlar ishlab chiqarila boshladi. 1995 yildan hozirgi nomdadir. 1997 yildan AQShning “Keys” firmasi bilan hamkorlikda traktor ishlab chiqadigan “O‘zbekkeystraktor” qo‘shma korxonasi tashkil etilgan. O‘zbekistonni qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishga katta xissa qo‘shgan [1].

Qurama va Chotqol tog‘lari etagida geologik qidiruv ishlari 1934 yildan boshlangan, natijasida Angren qo‘ng‘ir ko‘mir koni 1940-yilda ishga tushirildi. Ko‘mir xavzaning maydoni qaryib 70 km<sup>2</sup> maydonda, chuqurligi 860 metr gacha, O‘rta Osiyo barcha ko‘mir zaxiralarini ¼ qismini egalagan bo‘lib qatlamlari yura davri yotqiziqlari orasida joylashgan, qatlami judda serxosil yer yuzasida 20 metrdan 130 metrgacha chuqurlikda qazib olingan. Ko‘mir qazib olish bilan birgalikda “Erostigaz” stantsiyasida ko‘mir gazga aylantirilib, yiliga 50 mln. m<sup>3</sup> gaz ishlab chiqarilgan. Mamlakatimiz aholisi elektroenergetika sanoatiga va aholini ehtiyojlari uchun Angren ko‘mir koni xissa qo‘shib kelmoqda [3].

3-Mustaqillikdan keyingi davr. Zarafshon mintaqasi qadimiy yirik sanoat korxonalari bu Buxoro vino zavodi “Shohrud” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining vino zavodi–vino-aroq mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonasi, Buxoro yog‘ ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati, Navoiy issiqlik elektr stantsiyasi O‘zbekistondagi yillik issiqlik elektr stantsiyasi bo‘lib, u “O‘zbekenegriya” davlat aktsiyadorlik kompaniyasi tarkibida sho‘ba korxonasi sifatida ochilgan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati korxonasi “Qizilqumnodirmetalloltin” davlat kontserin tarkibidagi yirik sanoat korxonasi, Samarqand shahrida “Sino” aktsiyadorlik jamiyati—mashinasozlik sanoati korxonasi, “Samkochavto” qo‘shma korxonasi—avtomobilsozlik sanoati korxonasi. “O‘zavtosanoat” uyushmasi tarkibiga kiradi “O‘zavtosanoat” va “Koch xolding” (Turkiya) kompaniyasining hamkorligida tashkil etilgan. O‘rta hajmli avtobuslar va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan [2,13]. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar asosida qo‘shma korxonani qurish to‘g‘risida 1995 yilda bitim, 1996 yilda ta'sis hujjatlari imzolandi. Korxonani qurilishini moliyalashtirishda O‘zbekiston Respublikasi (50%), Turkiya tomonidan “KochAvtoinvest LTD”

(40%), “RamDish tijaret” (5%), “Koch xolding” (5%), kompaniyalari qatnashgan. 1999 yil mart oyida zavodning dastlabki mahsulotlari—shahar ichida va shaharlararo yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan o‘rta hajmli avtobuslar, ishlab chiqarildi. 2000 yildan 2 ta dan 5 tagacha yuk ko‘taradigan mashinalar ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. 2002 yil shaharlararo yo‘lovchi tashuvchi turbodizelli dvigatel o‘rnatilgan avtobuslar va 10 tonna yuk ko‘taradigan yuk mashinalari ishlab chiqarila boshladi. 2002 yilda, shuningdek, o‘t o‘chirish, assenizatsion, evakuator, yoqilg‘i, ichimlik suv, chiqindi, non va non mahsulotlari tashuvchi maxsus avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Korxonada Yaponiya, Germaniya, Italiya, Angliya va Turkiyada ishlab chiqarilgan eng zamonaviy texnologik uskunalari o‘rnatilgan. Korxonada ishlab chiqarilayotgan avtomobillar tannaxini kamaytirish, ularning butlovchi va ehtiyoj qismlarini mahalliy korxonalarda ishlab chiqarish chora tadbirlari ko‘rilmoqda. Korxonada mahsulotlari O‘zbekiston ichki bozorida sotiladi, shuningdek, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Afg‘onistonga eksport qilinadi. Eksport salmog‘ini oshirish maqsadlarida shu davlatlarda korxonaning vakolatxonalari ochilgan.

Hamda Samarqand sharob kombinati, Samarqand kimyo zavodi - kimyo sanoatining yirik korxonalaridan biri. “O‘z kimyosanoat” davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradi. Ammofos, oddiy superfosfat, boyitilgan superfosfat va boshqa fosforli o‘g‘itlar, sulfat kislota ishlab chiqaradi. Samarqand shahridan 12 km g‘arbda, Kimyogarlar shaxarchasida joylashgan. Dastlab “Samarqand superfosfat zavodi” nomi bilan korxonada kurilishi 1950- yilda boshlangan. 1980 yildan hozirgi nomda. 1954 yilda sulfat kislota sexi, 1955 yilda superfosfat sexi ishga tushirilgan. Oddiy superfosfat, ammoniy kislota, texnikada qo‘llaniladigan sulfat kislota, texnik kislorod, ro‘zg‘orbop kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtirilgan. Zavodda 1965 yilda rekonstruksiya qilinib, ishlab chiqarish quvvatlari 2 marta oshirildi. 1975 yilda yirik sulfat kislota sexi foydalanishga topshirildi, 1978 yildan jahon tajribasida birinchi marta tarkibida 24,5% R<sub>2</sub>O<sub>5</sub> bo‘lgan past navli Qoratov (Qozog‘iston) fosforitini qayta ishlashga o‘tdi. 1979 yilda zavodning 2navbati qurildi, yillik quvvati 450 ming tonna monogidrat bo‘lgan sulfat kislota sexi, 136,4 ming tonna ekstraksiyon fosfor kislota ishlab chiqaradigan fosfor kislota sexi ishga tushirildi. Zavodning ammofos ishlab chiqarish bo‘yicha navbati 1982-1984 yillarda qurilib, ekstraksiyon fosfor kislota sexi foydalanishga topshirildi. 1994 yildan zavodda ammoniy sulfat o‘g‘itini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Korxonaning diammoniy fosfat o‘g‘iti bo‘yicha yillik quvvatini 200 ming tonnaga yetkazish uchun qayta qurish ishlari olib borilmoqda. Yiliga 500 ming tonna sulfat kislota, ammofos va boshqa o‘g‘itlar ishlab chiqarish quvvatlariga ega. Korxonada mahalliy xomashyo bazasida ishlashga o‘tkazilgan. Korxonada ishlab chiqarilgan o‘g‘itlar Xitoy, Eron, Turkmaniston va boshqa davlatlarga eksport qilinadi [4].

Tadbirkorlikning ko‘p yillik an‘analari O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng qaytadan tiklana boshlandi.

Tarkibiy qayta qurishda chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda barqaror iqtisodiy o‘rnatishini

va aholi farovonligini ta'minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishning asosiy shartlaridan biridir.

Xomashyo yetishtirishga qaratilgan, chuqur hududiy nomutanosiliklarga hamda bo'lgan iqtisodiyotni zamon talabiga javob beruvchi iqtisodiyotga aylantirish uchun quyidagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zarur vazifalardan hisoblanadi:

1. Xomashyo yetishtirishga mo'ljallangan iqtisodiyotimizning bir tomonlamaligini qat'iyana bartaraf etish tomon tarmoq tuzilishini tubdan o'zgartirish tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish mahsulot sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazish.

2. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishda yo'l qo'yilgan nomutanosiblikni tugatish.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

- 1) Ўзбекистон миллий Энциклопедияси. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7-жилдлар. – Т.: “Энциклопедия”, 2005
- 2) Джамалова О.Б. и др. Воспроизводство валового продукта в промышленности Узбекистана. Под. ред. – Т.: «Фан», 1972.- С 13.